

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagи xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q.

2023- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 14 507,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 3 845,9 mlrd. so‘m yoki umumiyo ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 26,5 %ini tashkil qildi. 2022- yil yanvar-iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 107,3 %ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)**

| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % hisobida</i> | <i>yakunga nisbatan % hisobida</i> |
|---|-------------------|--|--|
| Jami xizmatlar: | 14 507,5 | 107,3 | 100,0 |
| <i>shu jumladan, xizmat turlari bo‘yicha:</i> | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 497,1 | 122,7 | 3,4 |
| Moliyaviy xizmatlar | 2 270,5 | 123,0 | 15,7 |
| Transport xizmatlari | 3 267,2 | 100,1 | 22,5 |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | | | |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 630,8 | 104,7 | 4,3 |


| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % hisobida</i> | <i>yakunga nisbatan % hisobida</i> |
|--|-------------------|--|--|
| Savdo xizmatlari | 4 723,6 | 105,5 | 32,6 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar | 448,2 | 104,7 | 3,1 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 328,8 | 100,8 | 2,3 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 372,4 | 113,2 | 2,6 |
| Ijara xizmatlari | 387,9 | 103,3 | 2,7 |
| Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari | 321,3 | 103,9 | 2,2 |
| Shaxsiy xizmatlar | 437,4 | 104,2 | 3,0 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 294,4 | 108,0 | 2,0 |
| Boshqa xizmatlar | 527,9 | 110,2 | 3,6 |

Yuqori o‘sish moliyaviy xizmatlar (123,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (122,7 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (113,2 %), me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (108,0 %) hamda savdo xizmatlari (105,5 %)da qayd etildi.

Shuningdek, uncha yuqori bo‘lмаган ко‘rsatkichlar, ijara xizmatlari (103,3 %), ta’lim sohasidagi xizmatlar (100,8 %) hamda transport xizmatlari (100,1 %)da qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo‘lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’atlarining o‘sishi kuzatilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2023- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 32,6 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,5 %) hamda moliyaviy xizmatlarda (15,7 %) qayd etildi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarda uncha katta bo'limgan o'sish kuzatilib ularning ulushi (4,3 %)ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulushlar kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2,2 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (2,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, %da
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)**




2023- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi viloyat bo'yicha umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 70,8 %ini tashkil etdi (2022- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 70,4 %ga to'g'ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 20,3 %ni tashkil etdi (2022- yilning mos davrida ulgurji savdo xizmatlari ulushi 20,4 %ga to'g'ri kelgan).

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 8,9 %ni tashkil qildi (2022- yilning mos davrida avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 9,2 %ga to'g'ri kelgan).


**Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining
o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan, %da
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)**



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Bo‘stonliq (113,7 %), Qayi Chirchiq (113,2 %), Zangiota (111,4 %), O‘rta Chirchiq (110,8 %) tumanlarida hamda Olmaliq shahrida (111,2 %) qayd etildi.

Aksincha, ushbu davr mobaynida eng past o‘sish sur’atlari Ohangaron (103,6 %), Yangiyo‘l (102,1 %) shaharlarida hamda Piskent (101,8 %), Yangiyo‘l (100,9 %), Qibray (100,2 %) tumanlarida qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (123,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (122,7 %), sog'liqi saqlash sohasidagi xizmatlar (113,2 %)da qayd etildi. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar ijara xizmatlari (103,3 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (100,8 %) hamda transport xizmatlari (100,1 %)da qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa xizmatlar (136,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (124,7 %), moliyaviy xizmatlar (124,4 %)da yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar transport xizmatlari (109,0 %), ijara xizmatlari (108,7 %) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari (108,0 %)da qayd etilgan.


**2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan
xizmatlar hajmi**

| | <i>Jami</i> | | | <i>Aholi jon boshiga</i> | |
|-------------------------|-------------------|--|--|--------------------------|--|
| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>2022- yil yanvar- iyunga nisbatan %da</i> | <i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da</i> | <i>ming so‘m</i> | <i>2022- yil yanvar- iyunga nisbatan %da</i> |
| Viloyat bo‘yicha | 14 507,5 | 107,3 | 100,0 | 4 825,1 | 105,3 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | |
| Nurafshon | 441,6 | 103,8 | 3,0 | 8 087,4 | 101,0 |
| Olmaliq | 1 054,9 | 111,2 | 7,3 | 7 392,6 | 106,0 |
| Angren | 949,8 | 106,4 | 6,5 | 5 285,5 | 103,8 |
| Bekobod | 703,7 | 110,2 | 4,9 | 6 858,8 | 107,8 |
| Ohangaron | 278,8 | 103,6 | 1,9 | 6 816,3 | 101,9 |
| Chirchiq | 1 185,1 | 103,9 | 8,2 | 7 012,4 | 101,8 |
| Yangiyo‘l | 607,4 | 102,1 | 4,2 | 7 371,3 | 99,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 377,4 | 103,7 | 2,6 | 3 409,3 | 101,8 |
| Ohangaron | 222,6 | 110,6 | 1,5 | 2 030,6 | 108,5 |
| Bekobod | 441,2 | 110,1 | 3,0 | 2 691,8 | 108,2 |
| Bo‘stonliq | 948,1 | 113,7 | 6,5 | 5 396,0 | 112,2 |
| Bo‘ka | 406,0 | 105,7 | 2,8 | 3 050,6 | 103,8 |
| Quyi Chirchiq | 393,7 | 113,2 | 2,7 | 3 435,1 | 111,0 |
| Zangiota | 1 448,0 | 111,4 | 10,0 | 8 624,2 | 110,6 |
| Yuqori Chirchiq | 641,4 | 110,4 | 4,4 | 4 654,2 | 108,3 |
| Qibray | 1 156,3 | 100,2 | 8,0 | 6 664,3 | 99,5 |
| Parkent | 564,7 | 110,6 | 3,9 | 3 212,1 | 108,8 |
| Piskent | 222,3 | 101,8 | 1,5 | 2 177,5 | 103,7 |
| O‘rta Chirchiq | 493,3 | 110,8 | 3,4 | 3 648,6 | 109,2 |
| Chinoz | 480,2 | 108,1 | 3,3 | 3 351,0 | 105,6 |
| Yangiyo‘l | 654,6 | 100,9 | 4,5 | 3 309,7 | 98,5 |
| Toshkent | 836,4 | 108,3 | 5,9 | 4 316,5 | 105,6 |

2023- yil yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Zangiota tumanida qayd etildi – (10,0 %) (2022- yilning mos davrida – 9,6 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkich Piskent tumanida – 1,5 % (2022- yilning mos davrida – 1,6 %) qayd etildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 4825,1 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,3 %ni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘sish sur’ati, %da



2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori ko‘rsatkichlar Bo‘stonliq (112,2 %), Quyi Chirchiq (111,0 %), Zangiota (110,6 %), O‘rta Chirchiq (109,2 %) hamda Parkent (108,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Nurafshon (101,0 %), Yangiyo‘l (99,6 %) shaharlarida hamda Qibray (99,5 %), Yangiyo‘l (98,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan
xizmatlar hajmi, ming so‘m**




Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori xizmatlar hajmi Zangiota tumanida – 8 624,2 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 110,6 %), Nurafshon shahrida – 8 087,4 ming so‘mni (101,0 %) va Olmaliq shahrida – 7 392,6 ming so‘mni (106,0 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng past xizmatlar ulushi Bekobod tumanida – 2 691,8 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 %), Piskent tumanida – 2 177,5 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 103,7 %) va Ohangaron tumanida – 2 030,6 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,5 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
faoliyatining ulushi, %da**

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)



2023- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 69,2 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Oqqo'rg'on (84,0 %), Bo'ka (83,0 %) tumanlariga hamda Yangiyo'l shahriga (88,7 %) to'g'ri keldi.

Aksincha, eng past ulush Bo'stonliq (57,0 %), Quyi Chirchiq (48,9 %) tumanlarida hamda Nurafshon shahrida (46,6 %) kuzatildi.